



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN  
HAL QILUV QARORI**

**Qamashi tumani 2022-yil 28-iyul 4-1806-2201/736-sonli ish**

Chiroqchi tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi A.Qodirov raisligida, sudya yordamchisi A.Chuliyevning kotibligida, arizachi vakili Z.Choriyev (*ishonchnoma asosida*) ishtirokida, arizachi [REDACTED] ning javobgar [REDACTED] fermer xo'jaligiga nisbatan bergan arizasi bo'yicha ishni [REDACTED] binosida ochiq sayyor sud majlisi muhokamasida ko'rib chiqib, quyidagilarni

**aniqladi:**

arizachi [REDACTED] sudiga ariza bilan murojaat etib, javobgar [REDACTED] fermer xo'jaligining banklardagi hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarini o'n kundan ko'p muddatga to'xtatib turishni so'ragan.

Sud majlisida muhokamasida ishtirok etgan arizachi vakili javobgar tomonidan hisobot topshirganligini bildirib, sudga ma'lumotnoma taqdim etib qonuniy qaror qabul qilishni so'radi.

Javobgar ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida tegishli ravishda xabardor qilingan bo'lsa-da, sud majlisiga kelmadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 220-moddasiga asosan sud ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topdi.

Sud ishdagi xujjatlarni o'rganib chikib, arizachi vakilining fikrlarini tinglab, quyidagi asoslarga ko'ra arizachining arizasini qanoatlantirishni rad etishni lozim topdi.

Ishdagi hujjatlardan ko'rinishicha, [REDACTED] fermer xo'jaligi kameral nazoratdan o'tkazilganda soliq hisobotida tafovutlar aniqlangan, aniqlangan tafovutlar bo'yicha belgilangan tartibda va muddatda [REDACTED] ga soliq hisoboti taqdim qilinmagan.

[REDACTED] ning 2022-yil 11-iyundagi qarori bilan javobgarning barcha hisobvaraqlari bo'yicha chiqim operatsiyalari 10 kun muddatga to'xtatilib xizmat ko'rsatuvchi bankga yuborilgan.

Shuningdek, [REDACTED] ning 2022-yil 11-iyundagi javobgarga yuborilgan xabarnomasi bilan javobgarning barcha hisobraqamlari bo'yicha chiqim operatsiyalari to'xtatilganligi ma'lum qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 111-moddasiga ko'ra soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni

